

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

QISHLOQ JAMOAT MARKAZLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish Universiteti o'qituvchilari

D. U. Sultanov, K. I. Raximov

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston shaharlaridagi Jamoat markazlarining ko'rsatgan xizmatlari, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy o'zgarishni ta'minlash kabi sohalarda fuqarolar uchun qanday foyda keltirishini haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jamoat markazlar, teatrlar, kino zallari, bibliotekalar, klublar, muzeylar, maydonda ma'muriy-jamoa.

O'zbekiston hududda jamoat markazlarining shakllanishi va ularni ma'lum shaharsozlik qonuniyatlari hamda usullari asosida qurilishi uzoq davrga borib taqaladi. Jamoat markazlari asosan shaharlar va mahalla markazlarida, chorrahalarda, bozorlar atrofida shakllangan. Jamoat markazlarining shakllanishi va taraqqiy etishida hududdagi ma'muriy-boshqaruv tizimi, diniy dunyoqarash, madaniyat va savdo-sotiqning rivojlanishi singari sotsial ijtimoiy faktorlar asosiy rol o'ynagan.

Shahar, viloyat yoki tuman qishloq ma'muriy jamoa markazida axoliga xizmat ko'rsatadigan yuqori ahamiyat kasb etadigan binolar: ma'muriy, tomosha binolari, madaniy-tarbiyaviy, savdo-maishiy binolari va boshka bino va inshootlar joylashtiriladi. O'zbekiston shaharlaridagi ma'muriy jamoat markazlari tarkibiga viloyat, shaxar xokimliklari binolari, xo'jalik binolari, g'aznachilik va boshkarmalarning binolari joylashgan. Bundan tashqari shahar markazida madaniy - tarbiyaviy ahamiyatdagi binolar (teatrlar, kino zallari, bibliotekalar, klublar, muzeylar) va savdo majmualari joylashtirilishi mumkin. Katta bulmagan aholi yashash punktlarida esa umumshahar ma'muriy markazi sifatida, shahar maydonlaridan biri tanlanishi mumkin. Ilk shaharlarda ma'muriy-jamoa markaz uzaro asosiy kucha, yashil bog'-rog'lar va suv xavzalari bilan bog'langan maydonlar tizimidan (guruhidan) iborat bo'lishi mumkin. Masalan, Toshkent shahridagi Mustakillik maydoni, Xotira maydoni va Amir Temur bog'i o'zaro bog'langan tizimdan iborat. Agar ma'muriy - jamoa markaz bir nechta maydonlar guruhidan iborat bo'lsa, ular orasidan asosiy maydonni ajratish kerak. Bu maydonda yirik ma'muriy va jamoa binolari joylashib, odamlar bilan gavjum bo'ladi. SHuning uchun bu maydon shaharning asosiy rayonlari bilan transport magistrallari bilan yaxshi bog'langan bo'lishi kerak va bu maydonni shaharning o'rtasida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shahar ma'muriy-jamoa markazining xududini shahar tranzit transportidan xoli qilish kerak. Ma'muriy-jamoa markazlarining maydonlari quyidagicha bo'linadi: Maxalliy xarakterdagi xizmat qiluvchi mo'jaz maydonlar va ommaviy chiqish, sayl va bayram kunlariga mo'ljallangan jamoa maydonlar. Jamoa markazi yaqinidagi asosiy ko'chani piyodalar yurishi uchun mo'ljallash maqsadga muvofiq. Shu bilan birga shahar markazidagi bino oldida shaxobchali avtomobillar to'xtash joyi bo'lishi kerak.

Ma'muriy-jamoa markazining me'moriy qiyofasida, u yoki bu davrning sotsial asosi aks etadi. Bu maydonlardagi binolar dabdabali qilib qurilgan. Ma'muriy-jamoa markazlari turli davrda turlicha bulgan: Ular binolar tarkibi, shahar tarzida joylashishi, xajmiy- rejaviy yechimi, me'moriy - kompozitsion yechimi bilan farq qilib, shahar boshqa qurilishlaridan ajralib turgan [1]. U asrlardagi jamoat markazlarida binolarni tan-tanali ansambl tarzida joylashtirish va qolgan binolarga nisbatan ulkan o'lchamlarda qurilishi an'anaga kirgan edi. Avvalgi davrlarda jamoat va xizmat ko'rsatish binolar turlarining ko'payishi tufayli ma'muriy-jamoa markazlarini ham turlicha loyixalash va qurilishiga sabab bo'ldi.

Ma'muriy-jamoa markazining planirovkasi binolar tarkibi, shahar kattaligi va markazining joylashishiga bog'liq. Ilk shaharlarda ma'muriy - jamoat markaz rivojlangan qurilishga ega bo'ladi va keng maydonni egallaydi. Ma'muriy-jamoa markazi maydonlar, bulvarlar, transport tugunlari va magistral ko'chalarining murakkab bog'lanishidan iborat. Xozirgi davrdagi taraqqiyot zamonaviy shaharlar asosini ma'muriy - jamoa markaz tashkil etadigan, yangi pog'onali tizim asosida shahar qurilishini olib borishni taqozo etadi.

Jamoat markazi tizimining ikkinchi pog'onasi mahalla markazlari xisoblanadi. Bu komplekslarda kundalik madaniy-maishiy va xujalik binolari joylashishi mumkin. (bolalar bogchasi, maktab binolari, zaruriy tovarlar do'koni, sport maydonchalari). Turarjoy rayonlari tarkibiga savdo inshootlari, klublar, kinoteatrlar, bibliotekalar, ommaviy ovqatlanish va sog'likni saklash muassasalari kiradi. Sanoat rayonlari va ommaviy dam olish joylarida ma'muriy - jamoa markazining tarkibi alohida talablar asosida aniqlanadi. [2]

Jamoat markazlarining qurilish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ularning tarkibi va planirovkasini kattik reglamentga olish kerak emas. Jamoat markazi turli xildagi loyiha asosida, binolar tarkibi va mahalliy sharoitni hisobga olgan holda joylashtirish maksadga muvofiqdir. Jamoat markazlari butun shahar qurilishlarini birlashtiruvchi tugun hisoblanadi. Jamoat markazlarisiz shahar bo'laklar va alohida qismlarga ajralib, yagona g'oyaga birlashmaydi. Mustaqillikdan keyin mamlakatimizda milliy an'ana va urf odatlarimizni qayta tiklashga katta e'tibor berildi. Sobiq shurolar davrida bu an'analar e'tibordan chetda qolib ketar edi. Jumladan, turarjoy rayonlari va mikrorayonlarni loyixalash va kurish butun ittifoqda qabul qilingan SNIP asosida olib borilgan va maxalliy urf-odatlar va an'analarga e'tibor berilmagan edi. Ma'lumki, O'zbekiston shaharlarida aholi yashash punktlari mahallalarga bo'lingan. Har bir mahallaning o'zining jamoa markazi - mahalla guzari, guzarlarda uzining choyxonasi, masjidi, minorasi va xovuzi mavjud edi. Sobiq shurolar davrida bu an'ana xisobga olinmadi [3]. Asosiy maqsad aholini uy- joy bilan ta'minlash edi. Vaxolanki, sharq mamlakatlariga xos urf-odat, marosim va marakalarni o'tkazishga ma'lum bino va inshootlar, ma'lum maydonlar kerak edi. Chunki bu urf-odatlar va an'analar ko'plab odamlarning to'planishiga va ma'lum maydonlar ajratilishini talab etardi. Mikrorayonlarni loyihalashda mana shu tamoyillar xisobga olinmagan.

Mustaqillik yillarida eski shaharlar hududidagi ba'zi badiiy yoki texnologik jihatdan eskirgan ob'ektlar olib tashlandi. Bu esa eski shaharlar qiyofasining yaxshilanishiga olib keldi. Buzilgan ob'ektlar joyida ochiq maydonlar yoki yangicha bino va elementlar paydo bo'ldi. Bu maydonlar atrofida milliy an'analarimiz asosida binolarni ansambl va kompleks tarzda joylashtirish yo'nalishi shakllanmoqda.

Toshkentda Biznes markaz qurilishining tugatilishi bilan bu yerda yahlit ko'p funksiyali kompleks shakllandi. Bu kompleksda binolar aylana maydon atrofida joylashgan bo'ladi [4].

Keyingi yillarda qurilgan jamoat binolarini tahlil qilganda ilg'or arxitektorlarimiz ijodida o'zgacha yo'nalishlarning qidirilishini kuzatishimiz mumkin. Bu binolarda milliy ruhning zamonaviy talqini aks ettirilgan. Buni biz qurilgan jamoat binolari misolida qurishimiz mumkin. Masalan: Oliy Majlis binosi, Senat binosi, Toshkent xokimiyati binosi, O'zbekiston anjumanlar saroyi binosi, Temuriylar tarix muzeyi, O'zbek akademik milliy drama teatri va boshqalar.

O'zbekistonda sanoatning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, shu bilan birga, aholi sonining uzluksiz o'sib borishi natijasida paydo bulgan Chirchik, Olmalik, Angren, Yangiyul, Navoiy, Zarafshon kabi qator yangi shaharlar mavjud. Yangi shaharlar qurilishining komplekslik uslubini Navoiy shahri misolida yaqol ko'rishimiz mumkin [5].

Bugungi kunda o'tmish me'morlari merosi va an'alarini puxta o'rgangan xolda zamonaviy me'morchilikka tatbiq etish dolzarb hisoblanadi. Hozirgi kunda texnik va texnologik taraqqiyot me'morlarimiz oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalardan birinchisi hozirgi davrga mos, zamonaviy talablar asosida turarjoy va jamoat binolarini loyihalash, binolar ansambl va komplekslarini yaratish, undan tashqari sanoat bino va inshootlar kompleksini yaratishda yaxlit uyg'unlikka erishishdan iborat. Ansambl va komplekslar shahar qurilishlarini yagona kompozitsiyaga birlashtirib, shahar yaxlitligini ta'minlaydi. Shahar ma'lum qismlaridagi turarjoy va jamoat binolari uning markazida tashkil etilgan jamoat markazi ansambliga buysinishi kerak. Bu ansamblar o'z navbatida shahar markaziy jamoat maydoni ansambliga buysinishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Архитектурная композиция жилых и общественных комплексов. - М.: «Стройиздат» 1976.
2. Бочаров Ю . П. Планировочная структура современного города. - М.: “Стройиздат”, 1972.
3. Кодирова Т. Ф. Узбекистон истиклол йиллари меъморлиги. Укув кулланма. - Т.: 2010.
4. Кодирова Т. Ф. Пути архитектурного возрождения Узбекистана за XX - начала XXI вв. (традиции и современность). - Т.: Издательство ТАСИ, 2007.
5. Потаев Г. А. Градостроительное искусство: традиции и инновации. – Минск: БНТУ, 2016. – 220 с.